

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix va falsafa kafedrası professor-o'qituvchilarining Denov tuman maktablarida 2023-2024 o'quv yilida bitiruvchi maktab o'quvchilarini oliy o'quv yurtlariga jalb etish va ularga berilgan imtiyozlarni targ'ib qilish maqsadida o'tkazilgan tadbir

BAYONNOMASI

20.05 2025 y

Denov tumani

Ishtirok etuvchilar:

1. Denov tumani 88 -son umumiy o'rta ta'lim direktori – M. Kaltosayev
2. DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix va falsafa kafedrası o'qituvchilari
4. 88 -maktab o'qituvchilari va bitiruvchi yoshlari.

Kun tartibi:

1. “Yoshlar yurt tayanchi” mavzusida tadbir o'tkazish.

DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Tarix va falsafa kafedrası o'qituvchi A. Rarshiyev so'zga chiqib, quyidagilarni ta'kidlab o'tdi. Ma'lumki, so'nggi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida tub o'zgarishlar bo'lyapti. So'nggi yillarda ta'lim sifatiga e'tibor umumxalq harakatiga ham aylanib bormoqda. Faxr bilan aytish kerak, bugun yurtimizda yoshlar masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Iqtidorli o'quvchilarimiz bunga javoban xalqaro olimpiadalar, turli tanlovlarda O'zbekistonimiz sharafiga munosib himoya qilmoqda. Bilim va iqtidorlarini namoyon etib, ko'ngillarga quvonch ulashmoqda. Yakuniga yetayotgan o'quv yili so'ngida yana bir bora O'zbekiston yoshlari kelajagiga, kamol topishiga birdek mas'ul ekanmiz, nafaqat maktabda ta'lim olish davrida, balki ta'til vaqtida ham farzandlarimizga katta e'tibor qaratish barchamizning burchimizdir. O'quvchilarga o'quv yilini muvaffaqiyatli tamomlaganligi bilan yana bir karra qutlab, barchaga Vatanimiz rivojiga o'z hissasini qo'shuvchi barkamol avlod bo'lib yetishishini tilab qolaman.

B. Nazirov oliy ta'limda amlga oshirilayotgan islohotlar, abeturyentlarga berilayotgan imtiyozlar haqida ma'lumot berish bilan birga, Denov tadbirkorlik va pedagogika institutidagi mavjud yo'nalishlar, professor-o'qituvchilarning o'quv-ilmiy faoliyatlari, fanlarni o'qitishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarning o'rni, institutda talabalarning o'qish va dam olishlari uchun tashkil etilgan sharoitlar, turli xil sport va fan to'garaklarining tashkil etilganligi haqida alohida to'xtalib o'tdi.

P. Normamatova 2023/2024 o'quv yilida maktabni tamomlayotgan bitiruvchilarning barchasi oliy o'quv yurtlariga o'qib, vatanimiz ravnaqini yuksaklarga ko'taradigan farzand bo'lishini tiladi. Kelgusida qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar har jihatdan sodiq, halol, vatanparvar, fidoiy, mard va jasur bo'lish bilan birga, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, xalq manfaatlarini har narsadan ustun qo'yadigan yosh va istiqbolli xodim bo'lib yetishishiga ishonch bildirildi.

Denov tumani 88 -son

maktab direktori:

DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti

Tarix va falsafa kafedrası o'qituvchilari



M. Kaltosayev

A. Yumayev
P. Normamatova

B. Nazirov
A. Rarshiyev



Tarix va fabrika tashviri o'qituvchilari